



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 196 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>	
Zo'ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
<i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'рни.....	27
<i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</i>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<i>Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna</i>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
<i>Alibekova Mahzuna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54	54
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
<i>Ruzmetova D. A.</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
<i>Saydanova Dilafuz Sadirdinovna</i>	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
<i>Akhmatova Munisa Orif qizi</i>	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
<i>Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
<i>Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna</i>	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
<i>Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
<i>Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadriddinovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
<i>Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
<i>Go'zal Qurbonova</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
<i>Muratova Munavvar O'rol qizi</i>	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
<i>Usmonova Zamira Jaxongirovna</i>	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
<i>Axmedova Shaxlo Shoxob qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
<i>Panayeva Maloxat Muminovna</i>	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
<i>Багдасарова Диана Левоновна</i>	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
<i>Зарымова Турсынай Бердибай кызы</i>	
A Review of the Literature on Stem Cells in Dentistry	145
<i>Ruziyeva Kamola Akhtamovna</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini o'qitish masalalari (gitara cholg'usi misolida)	150
<i>Abdullayev O'tkir Sadullayevich</i>	
Talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	154
<i>Avezov Davronbek Soburovich</i>	
O'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi	158
<i>Erkaboyeva Nigora Shermatovna</i>	
Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida ingliz tilini mustaqil o'rganishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	163
<i>Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna</i>	
Yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi jarayonida siyosiy taraqqiyot barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash muammolari	168
<i>Nazarov Alisher Narimanovich</i>	
Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	171
<i>Qodirov Jahongir Neymat o'g'li</i>	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari.....	176
<i>Qosimova Xolida Nabiyevna</i>	
Jismoniy imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish	179
<i>Raxmatullayeva Durdoni Fazliddin qizi</i>	
Personalized Approach to the Treatment of Generalized Periodontitis in the Prediction of Cardiovascular Complications Based on Salivary Proteomic Profiling.....	182
<i>Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababayan I. R.</i>	
O'smirlarda irratsional ustanovkalar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	187
<i>Toshboltayeva Nodira</i>	
Роль интерактивного лингвокультурологического пространства в формировании лингвокультурной компетенции студентов национальных групп филологических направлений.....	191
<i>Рустамова Ферузахон Махмуджановна</i>	



O'SMIRLARDA IRRATSIONAL USTANOVKALAR SHAKLLANISHINING IJTIMOYIY- PSIXOLOGIK OMILLARI

Toshboltayeva Nodira

FarDU Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'smirlik davrida irratsional ustanovkalarning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. O'smir shaxsining kognitiv rivojlanishi, oilaviy muhit, tengdoshlar guruhi, ta'lim muassasasi, ommaviy axborot vositalari hamda raqamli kommunikatsiya vositalarining irratsional e'tiqodlarning shakllanishidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, irratsional ustanovkalarning shaxsning emotsional barqarorligi, moslashuvchanligi va psixologik farovonligiga ko'rsatadigan ta'siri asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari irratsional ustanovkalarni erta aniqlash hamda ularni psixologik profilaktika qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: o'smirlik, irratsional ustanovka, kognitiv buzilishlar, ijtimoiy muhit, psixologik omillar, oilaviy tarbiya, tengdoshlar ta'siri, psixologik moslashuv, ratsional fikrlash, kognitiv rivojlanish.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the socio-psychological factors influencing the formation of irrational beliefs during adolescence. It examines the role of adolescents' cognitive development, family environment, peer groups, educational institutions, mass media, and digital communication technologies in the development of irrational beliefs. The study also substantiates the impact of irrational beliefs on emotional stability, psychological adaptability, and overall psychological well-being. The findings provide a theoretical basis for the early identification of irrational beliefs and the development of practical recommendations for their psychological prevention.

Key words: adolescence, irrational beliefs, cognitive distortions, social environment, psychological factors, family upbringing, peer influence, psychological adaptation, rational thinking, cognitive development.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретических позиций анализируются социально-психологические факторы, влияющие на формирование иррациональных установок в подростковом возрасте. Рассматривается роль когнитивного развития личности подростка, семейной среды, группы сверстников, образовательного учреждения, средств массовой информации и цифровых коммуникационных технологий в формировании иррациональных убеждений. Кроме того, обосновывается влияние иррациональных установок на эмоциональную устойчивость, адаптивность и психологическое благополучие личности. Результаты исследования служат теоретической основой для раннего выявления иррациональных установок и разработки практических рекомендаций по их психологической профилактике.

Ключевые слова: подростковый возраст, иррациональные установки, когнитивные искажения, социальная среда, психологические факторы, семейное воспитание, влияние сверстников, психологическая адаптация, рациональное мышление, когнитивное развитие.

KIRISH

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, axborot texnologiyalarining jadal sur'atlarda taraqqiy etishi hamda kommunikativ makonning kengayishi o'smir shaxsining psixologik rivojlanishiga yangi talablarni qo'yimoqda. Bugungi kunda o'smirlarning psixologik salomatligi, ularning voqelikni idrok etish usuli va hayotiy qarashlarining shakllanishi nafaqat individual, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega masala hisoblanadi. O'smirlik davri shaxs rivojlanishining eng murakkab bosqichlaridan biri bo'lib, aynan ushbu davrda shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, o'z-o'zini baholash va hayotiy ustanovkalari shakllanadi. Mazkur jarayonda turli irratsional e'tiqodlarning vujudga kelishi kelgusida emotsional zo'riqish, tashvishlilik, depressiv holatlar, ijtimoiy moslashuvning buzilishi hamda xulq-atvor muammolariga sabab bo'lishi mumkin.

Shuning uchun irratsional ustanovkalarning shakllanishiga olib keluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni ilmiy asosda o'rganish zamonaviy psixologiyaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'smirlik davri inson ontogenezining eng murakkab va mas'uliyatli bosqichlaridan biri bo'lib, mazkur davrda shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlarini, ijtimoiy munosabatlari, o'z-o'zini anglash darajasi hamda hayotiy pozitsiyasi shakllanadi. Ushbu bosqichda yuz beradigan biologik, psixologik va ijtimoiy o'zgarishlar o'smirning voqelikni idrok etish xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, voqea va hodisalarga nisbatan noto'g'ri, mantiqsiz hamda haddan tashqari umumlashtirilgan fikrlar tizimi sifatida namoyon bo'ladigan irratsional ustanovkalar o'smir shaxsining psixologik rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, irratsional ustanovkalar emotsional zo'riqish, xavotirlik, depressiv holatlar, agressiv xulq-atvor, o'ziga ishonchsizlik hamda ijtimoiy moslashuvning buzilishiga sabab bo'luvchi muhim kognitiv omillardan biri hisoblanadi. Shu bois o'smirlarda irratsional ustanovkalarning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash va ularning rivojlanish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash bugungi psixologiya fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'smirlarda irratsional ustanovkalarning shakllanishi muammosi xorijiy va mahalliy psixologlar tomonidan keng o'rganilgan.

Albert Ellis irratsional e'tiqodlar insonning emotsional holati va xulq-atvoriga bevosita ta'sir qilishini asoslab, ularning shakllanishida noto'g'ri kognitiv baholashlar muhim o'rin tutishini ta'kidlagan.

Aaron Beck esa kognitiv buzilishlar va salbiy avtomatik fikrlarning shaxsning psixologik moslashuviga salbiy ta'sirini ilmiy jihatdan izohlagan.

Albert Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, irratsional qarashlar oila, tengdoshlar va ijtimoiy muhit ta'sirida kuzatish hamda taqlid qilish orqali shakllanadi.

Shuningdek, Lev Vygotsky shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhit va muloqotning hal qiluvchi ahamiyatini asoslagan.

Mazkur ilmiy qarashlar o'smirlarda irratsional ustanovkalarning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni kompleks o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda o'smirlarda irratsional ustanovkalarning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash maqsadida nazariy-tahliliy metodologiyadan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kognitiv psixologiya, rivojlanish psixologiyasi hamda ijtimoiy psixologiyaning zamonaviy konsepsiyalari tashkil etdi. Xususan, Albert Ellisning ratsional-emosiv xulq-atvor nazariyasi, Albert Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi, Lev Vygotskyning madaniy-tarixiy rivojlanish konsepsiyasi hamda Aaron Beckning kognitiv nazariyasi tadqiqotning nazariy poydevori sifatida qabul qilindi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-tahliliy yondashuv, tizimli tahlil, umumlashtirish va interpretatsiya metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, o'smirlarda irratsional ustanovkalarning shakllanishiga oilaviy muhit, tengdoshlar guruhi, ta'lim muhiti, ommaviy axborot vositalari hamda raqamli kommunikatsiya texnologiyalarining ta'siri ilmiy manbalar asosida qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Olingan nazariy ma'lumotlar umumlashtirilib, irratsional ustanovkalarning shakllanish mexanizmlari hamda ularni oldini olishning ijtimoiy-psixologik yo'nalishlari asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Irratsional ustanovkalar tushunchasi kognitiv psixologiya hamda ratsional-emosiv xulq-atvor terapiyasi doirasida keng tadqiq etilgan. Albert Ellisning nazariyasiga ko'ra, insonning hissiy kechinmalari va xulq-atvori sodir bo'lgan voqeaning o'ziga emas, balki ushbu voqeaga nisbatan shakllangan subyektiv e'tiqod va baholash tizimiga bog'liq bo'ladi^[1, 24-b.]. Agar shaxs voqelikni noto'g'ri, mutlaqlashtirilgan yoki mantiqsiz tarzda baholasa, unda irratsional ustanovkalar shakllanadi. Bunday ustanovkalar odatda "Men har doim muvaffaqiyatli bo'lishim shart", "Barcha odamlar meni yoqtirishi kerak", "Xato qilish mumkin emas", "Bir marta muvaffaqiyatsizlikka uchrasam, demak men omadsiz insonman" kabi qat'iy va moslashuvchan bo'lmagan e'tiqodlar orqali namoyon bo'ladi. Aynan o'smirlik davrida abstrakt tafakkurning rivojlanishi, emotsional sezgirlikning ortishi hamda shaxsiy identifikatsiya jarayonining faollashuvi ushbu irratsional qarashlarning shakllanishi uchun qulay psixologik sharoit yaratadi.

O'smirlarda irratsional ustanovkalarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri oilaviy muhit hisoblanadi. Oila shaxsning dastlabki ijtimoiylashuv instituti bo'lib, unda bola ilk bor qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar va xulq-atvor namunalari o'zlashtiradi. Oilada hukm suradigan psixologik iqlim, ota-onalarning tarbiya uslubi,



emotsional qo'llab-quvvatlash darajasi hamda kommunikativ munosabatlar sifati o'smirning kognitiv qarashlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi [2, 65-b.]. Avtoritar tarbiya uslubi hukmron bo'lgan oilalarda bolalar ko'pincha o'z xatolariga nisbatan keskin munosabatda bo'ladi, o'z imkoniyatlarini past baholaydilar va mukammallikka intilish bilan bog'liq irratsional qarashlarni shakllantiradilar. Aksincha, haddan tashqari erkin yoki nazoratsiz tarbiya ham shaxsda mas'uliyat hissining yetarli darajada rivojlanmasligiga, voqelikni noto'g'ri baholashga va emotsional beqarorlikka olib kelishi mumkin [3, 45-b.]. Oiladagi nizolar, ajralishlar, emotsional sovuqlik, zo'ravonlik yoki ota-onalarning bolaga nisbatan yuqori talabchanligi ham irratsional ustanovkalarining rivojlanish xavfini oshiruvchi muhim omillar sirasiga kiradi.

Tengdoshlar guruhi ham o'smirlik davrida irratsional qarashlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Mazkur yosh davrida o'smir uchun referent guruhning fikri ota-onalar fikridan ham ustun ahamiyat kasb eta boshlaydi. Guruh tomonidan qabul qilinishga bo'lgan kuchli ehtiyoj ayrim hollarda o'smirni o'z shaxsiy qarashlari va qadriyatlaridan voz kechishga, ijtimoiy stereotiplarga moslashishga undaydi. Natijada "Agar do'stlarim meni qabul qilmasa, men hech kim emasman", "Boshqalardan kam bo'lish mumkin emas", "Har doim tengdoshlarimdan ustun bo'lishim kerak" kabi irratsional e'tiqodlar yuzaga keladi. Ijtimoiy taqqoslash jarayonining kuchayishi o'z-o'zini baholashning pasayishiga, xavotirlikning ortishiga va emotsional beqarorlikka sabab bo'ladi [4, 89-b.].

Ta'lim muhiti ham irratsional ustanovkalarining shakllanishida muhim determinant hisoblanadi. Maktabdagi baholash tizimi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar, pedagoglarning kommunikativ madaniyati hamda sinf jamoasidagi psixologik muhit o'smirning o'ziga nisbatan munosabatini shakllantiradi. Ta'lim jarayonida faqat natijaga yo'naltirilgan yondashuv, o'quvchilarni muntazam taqqoslash, xatolarni keskin tanqid qilish yoki muvaffaqiyatni faqat yuqori baholar bilan bog'lash o'smirlarda mukammallik sindromini kuchaytiradi. Natijada "Faqat a'lo baho olsamgina qadrliman", "Bir marta xato qilsam, hamma meni omadsiz deb hisoblaydi", "Har qanday vaziyatda muvaffaqiyatga erishishim shart" kabi irratsional ustanovkalar shakllanadi. Bunday e'tiqodlar esa akademik stress, test xavotiri va o'quv motivatsiyasining pasayishiga olib keladi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ham o'smirlar psixologiyasiga yangi ta'sir omillarini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, internet platformalari va raqamli media vositalari orqali uzatilayotgan ideal obrazlar, muvaffaqiyat stereotiplari hamda iste'molchilik qadriyatlari o'smirlarning o'zini baholash tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Virtual makonda namoyish etilayotgan mukammal tashqi ko'rinish, yuqori moddiy farovonlik yoki doimiy muvaffaqiyat haqidagi tasvirlar real hayot bilan taqqoslanib, shaxsda norozilik va o'zini yetarli emas deb baholash holatlarini kuchaytiradi. Natijada "Men boshqalardak mukammal bo'lishim kerak", "Har doim baxtli ko'rinishim shart", "Mashhur bo'lmasam, muvaffaqiyatsiz insonman" kabi irratsional e'tiqodlar rivojlanadi. Mazkur jarayon ayniqsa o'z-o'zini anglash hali to'liq shakllanmagan o'smirlar uchun psixologik xavf omili hisoblanadi [2, 67-b.].

O'smirning individual psixologik xususiyatlari ham irratsional ustanovkalarining shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Temperament tipi, emotsional reaktivlik, frustratsiyaga chidamlilik darajasi, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalari hamda kognitiv moslashuvchanlik irratsional fikrlashning rivojlanish ehtimolini belgilaydi. Yuqori darajadagi tashvishlilik, nevrotiklik, past o'zini baholash va mukammallikka intilish kabi shaxsiy sifatlar irratsional e'tiqodlarning barqarorlashishiga qulay zamin yaratadi. Shuningdek, o'smirning salbiy hayotiy tajribalari, muvaffaqiyatsizliklari yoki psixologik travmalari ham voqelikni salbiy talqin qilishga olib keluvchi kognitiv sxemalarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

Irratsional ustanovkalarining rivojlanishida ijtimoiy o'rganish mexanizmi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Albert Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, shaxs nafaqat o'z tajribasi, balki kuzatish va taqlid qilish orqali ham yangi xulq-atvor shakllarini egallaydi. Shu nuqtai nazardan, ota-onalar, pedagoglar, tengdoshlar, ommaviy axborot vositalari va internet kontenti o'smirning irratsional qarashlarini shakllantiruvchi model vazifasini bajarishi mumkin [6, 98-b.]. Agar bola doimiy ravishda salbiy fikrlash, qat'iy stereotiplar yoki haddan tashqari talabchan munosabatlarga guvoh bo'lsa, ularni o'zining kognitiv tizimiga singdirishi ehtimoli ortadi.

Demak, o'smirlarda irratsional ustanovkalarining shakllanishi ko'plab ijtimoiy va psixologik omillarning murakkab o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan ko'p bosqichli jarayondir. Oilaviy tarbiya, maktab muhiti, tengdoshlar guruhi, raqamli axborot makoni va individual psixologik xususiyatlar ushbu jarayonning asosiy determinantlari hisoblanadi. Shuning uchun irratsional ustanovkalarining oldini olish maqsadida oilada demokratik tarbiya usullarini rivojlantirish, maktablarda psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish, o'smirlarda tanqidiy va ratsional fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, media savodxonlikni oshirish hamda emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan kompleks psixologik dasturlarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv o'smirlarning psixologik salomatligini mustahkamlash, ularning ijtimoiy moslashuvchanligini oshirish va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'smirlik davri irratsional ustanovkalar shakllanishi uchun eng sezgir rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Mazkur ustanovkalarning rivojlanishi biologik yetilish bilan emas, balki ijtimoiy-psixologik muhit ta'sirida yuzaga keladigan murakkab kognitiv jarayonlar bilan belgilanadi.

Oiladagi tarbiya uslubi, tengdoshlar guruhi, maktab muhiti hamda zamonaviy axborot makoni irratsional e'tiqodlarning shakllanishida asosiy determinantlar sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli o'smirlarda ratsional tafakkurni rivojlantirish, kognitiv moslashuvchanlikni shakllantirish, ota-onalar va pedagoglarning psixologik kompetentligini oshirish irratsional ustanovkalarning oldini olishning muhim sharti hisoblanadi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda irratsional ustanovkalar, emotsional intellekt, rezilyentlik va psixologik farovonlik o'rtasidagi bog'liqlikni empirik jihatdan o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Albert Ellis Reason and Emotion in Psychotherapy. New York: Lyle Stuart, 1962.
2. Albert Ellis. The Myth of Self-Esteem. Amherst: Prometheus Books, 2005.
3. Aaron T. Beck. Cognitive Therapy and the Emotional Disorders. New York: International Universities Press, 1976.
4. Lev Vygotsky. Mind in Society. Cambridge: Harvard University Press, 1978.
5. Jean Piaget. The Psychology of Intelligence. Routledge, 1950.
6. Albert Bandura. Social Learning Theory. Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1977.
7. Urie Bronfenbrenner. The Ecology of Human Development. Harvard University Press, 1979.
8. David H. Barlow. Clinical Handbook of Psychological Disorders. Guilford Press, 2021.
9. Judith S. Beck. Cognitive Behavior Therapy: Basics and Beyond. 3rd ed. Guilford Press, 2020.
10. American Psychological Association. Publication Manual of the American Psychological Association. 7th ed., 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.